


**2021- yil yanvar-may oylarida  
SURXONDARYO VILOYATI  
xizmatlar sohasining  
rivojlanishi**

**2021- yil yanvar-may**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Hozirgi kunda xizmatlar sohasi xizmatlarning tabiati, ularning maqsadi, faoliyat turlari va xizmat ko'rsatish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari tufayli turli xil funksiyalarga, manbalarga, ulanishlarga ega bo'lgan murakkab, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir.



2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 786,5** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **945,9** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **122,9 %** ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-may oylarida)

945,9  
mlrd. so'mga

Hajmning o'sishi

3786,5  
mlrd. so'm

Xizmatlar hajmi

122,9 %

O'sish sur'ati



2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-may oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>3 786,5</b>	<b>122,9</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	183,0	121,6
Moliyaviy xizmatlar	756,3	126,8
Transport xizmatlari	592,0	124,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	560,3	124,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	112,0	110,2
Savdo xizmatlari	1 380,8	109,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	93,9	132,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	161,4	156,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	60,7	178,2
Ijara xizmatlari	127,1	198,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	100,2	136,5
Shaxsiy xizmatlar	103,3	130,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	38,2	137,4
Boshqa xizmatlar	77,6	137,2

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi

Nisbatan yuqori ko'rsatkich

Nisbatan past ko'rsatkich



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi.

2021- yil yanvar-may oylarida ularning ulushi **36,5 %** ni tashkil etdi.

**2021- yil yanvar- may**

**Dastlabki ma'lumotlar**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-may oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **40,0 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning shu davrida kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarning ulushi ham eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **0,9 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi. Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.

2021- yil yanvar-may oylarida yuqori o'sish ijara (**98,4 %**), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**78,2 %**), ta'lim (**56,9 %**), qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarida eng kam o'sish savdo xizmatlari (**9,9 %**) sohasida qayd etildi.


**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **127,6 %**.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda biroz o'sish kuzatilgan – **60,6 %**.

**2021- yil yanvar- may**

**Dastlabki ma'lumotlar**

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'atlarining taqqoslanishi, % da**






Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi.

Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.

### Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da



2021- yil yanvar-may oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **61,5** % ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-may oylarida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi **64,4** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdogaga bo'linadi.

2021- yil yanvar-may oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **36,5** % ni tashkil etib, bu esa **1 380,8** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-may oylarida ularning hajmi **1 136,3** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **40,0** % iga to'g'ri kelgan.

### Savdo xizmatlari

1136,3

Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm

1380,8

94,0

O'sish sur'ati, % da

109,9

2020- y. yanvar-may



2021- y. yanvar-may

2021- yil yanvar-may


Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rttdan uch qismini, aniqrog'i **84,5 %** ini tashkil etdi.

**Savdo xizmatlari tarkibi**  
(2021- yil yanvar-may oylarida)



**Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda**



**Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar**



**Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)**

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-may oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi **82,6 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-may oylarida)

2021- yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **756,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-may oylarida ularning hajmi **574,2** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **20,0** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-may oylarida ularning ulushi **20,2** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **182,1** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **26,8** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-may oylarida ularning o'sish sur'ati **127,6** % ni tashkil etgan.

**2021- yil yanvar-may**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **94,4 %** ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,2 %** ni tashkil etadi.

2021- yilning yanvar- may oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **3,4 %** oralig'ida qayd etildi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi**  
(2021- yil yanvar-may oylarida)



Sug'urta va nafaqa ta'minoti  
bo'yicha xizmatlardan tashqari  
moliyaviy xizmatlar

Yordamchi moliyaviy  
faoliyat

Sug'urta bo'yicha xizmatlar

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **94,9 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **3,5 %** ga to'g'ri kelgan.

Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **1,6 %**.

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2021- yilning yanvar-may oylarida)


2021- yilning yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **183,0** mlrd. so'm darajasida belgilandi.

2020- yilga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati **121,6** % ni tashkil etgan.

**Taqqoslash uchun:**  
2020- yil yanvar-may oylarida ushbu xizmat turi hajmi **148,6** mlrd. so'm

yoki ko'rsatilgan bozor

xizmatlari umumiy hajmining **5,2** % iga teng bo'lgan.  
O'sish sur'ati esa **107,9** % ni tashkil etgan.




2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2021- yil yanvar-may oylarida ularning ulushi **95,8** % ni tashkil etdi.

### Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi

2020- y.  
yanvar-may



2021- y.  
yanvar-may



Telekommunikatsiya xizmatlari

Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlari

Noshirlik xizmatlari

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-may oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **96,5** % ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar




2017-2021- yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish – uzluksiz **ta'lim tizimini** yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2021- yil yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **161,4** mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi **4,3 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **156,9 %** ni tashkil etdi.



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-may oylarida xizmatlar hajmi **99,8** mlrd. so'mga teng bo'lgan. 2019- yilga nisbatan esa o'sish **15,8 %** darajasida qayd etilgan.

2021- yil yanvar-may


Dastlabki ma'lumotlar



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi **23,9** mlrd. so'mga ortdi.

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi

2021- y. yanvar-may

91,5 %

8,5 %



6,4 %

93,6 %

2021- y. yanvar-may

-  Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar
-  Yashash bo'yicha xizmatlar

2021- yil yanvar-may oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **91,5 %** bilan ustunlik qildi.

*Taqqoslash uchun:* 2020- yil yanvar-may oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **93,6 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya epidemiologiyalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

### Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2020- y.

yanvar-may

2021- y.

32,3  
mlrd. so'm

Xizmatlar  
hajmi

60,7  
mlrd. so'm

92,6 %

O'sish  
sur'ati

178,2 %

1,1 %

Xizmatlarning  
jami hajmidagi  
ulushi

1,6 %




2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da  
(2021- yil yanvar-may oylarida)



2021- yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush – **27,9** % (2020- yil yanvar-may oylarida – **26,9** %) ni Termiz shahri tashkil etdi. Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Bandixon tumanida – **2,2** % (2020- yil yanvar-may oylarida – **2,3** %) qayd etildi.

**2021- yil yanvar-may**

**Dastlabki ma'lumotlar**

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-may oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021- y.	2020- y.
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>3786,5</b>	<b>122,9</b>	<b>96,5</b>
Termiz sh.	1055,3	127,5	105,4
tumanlar:			
Oltinsoy	150,7	118,8	88,2
Angor	167,6	117,4	88,7
Bandixon	83,9	116,9	93,1
Boysun	120,6	120,9	90,3
Muzrabot	173,0	117,8	87,0
Denov	462,2	129,6	91,5
Jarqo'rg'on	227,4	122,6	87,9
Qumqo'rg'on	229,4	121,0	95,7
Qiziriq	156,4	120,9	88,0
Sariosiyo	228,6	116,8	91,4
Termiz	168,5	120,2	70,9
Uzun	161,0	119,3	90,1
Sherobod	208,6	121,5	90,9
Sho'rchi	193,3	119,0	89,6

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

#### Xizmatlar hajmi

1 409,2  
ming so'm

#### Hajmning o'sishi

331,2  
ming so'mga

2021- yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1409,2** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan o'sish sur'ati **120,5** % ni tashkil etdi.



120,5 %

#### O'sish sur'ati

#### Taqqoslash uchun:

2020- yilning yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1078,0** ming so'mni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2021- yilning 1- iyun holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

17332 birlik

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

3149 birlikga

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari

122,2 %

Ularning umumiy sonidagi ulushi


60,4 %

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **60,4 %**, sanoat **16,3 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ulushi **13,6 %** ga yetdi. Qurilish sohasi ulushi esa **9,7 %** ga to'g'ri keladi.

**2021- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **62,3 %** ni, sanoat **14,8 %** ni, qurilish **10,7 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **12,2 %** ni tashkil etgan.

2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (**46,9 %**) egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **10,2 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **4,9 %** ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **2,4 %** ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **1,8 %** ga teng bo'ldi.




2021- yil yanvar-may

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylandi, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

### Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da



2021- yil yanvar-may oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **65,8 %** ni tashkil etdi.

### 2021- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining hisssasi **54,4 %** ga to'g'ri keldi.

